

**KORXONALARDA GUMODOR QARZLAR BO‘YICHA ZAXIRA
HISOBINI TASHKIL ETISHNING NAZARIY ASOSLARI VA XALQARO
TAJRIBA (IFRS ASOSIDA)**

Yoldashev Rayimjon

Andijon davlat texnika instituti o‘qituvchisi

Odilov Jamshidbek Bohodirjon o‘g‘li

Andijon davlat texnika instituti 4-bosqch talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada korxonalarda gumodor qarzlari bo‘yicha zaxira hisobini tashkil etishning nazariy asoslari va uning moliyaviy hisobotlarda aks ettirilish xususiyatlari yoritilgan. Tadqiqot jarayonida gumodor qarzlari tushunchasining iqtisodiy mazmuni, ularni baholash mezonlari hamda zaxira shakllantirish zarurati ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan IFRS 9 doirasida qo‘llanilayotgan kutilayotgan kredit yo‘qotishlari (Expected Credit Loss) modeli tahlil qilinib, uning an‘anaviy yondashuvlardan ustun jihatlari ko‘rsatib berilgan. Maqolada milliy buxgalteriya hisobi amaliyoti bilan xalqaro tajriba qiyosiy tahlil qilinib, korxonalarda gumodor qarzlari bo‘yicha zaxira hisobini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-amaliy xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: gumodor qarzlari, zaxira hisobi, buxgalteriya hisobi, moliyaviy hisobot, IFRS 9, kutilayotgan kredit yo‘qotishlari.

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ОРГАНИЗАЦИИ УЧЕТА РЕЗЕРВА
ПО СОМНИТЕЛЬНЫМ ДОЛГАМ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ И
МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ (НА ОСНОВЕ МСФО)**

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические основы организации учета резерва по сомнительным долгам на предприятиях и особенности его отражения в финансовой отчетности. В ходе исследования раскрывается экономическая сущность сомнительных долгов, критерии их оценки и необходимость формирования резервов. Особое внимание уделено анализу международных стандартов финансовой отчетности, в частности модели ожидаемых кредитных потерь (Expected Credit Loss) в рамках МСФО (IFRS) 9, а также выявлению ее преимуществ по сравнению с традиционными подходами. Проведен сравнительный анализ национальной системы бухгалтерского учета и международного опыта, на основе которого сформулированы научно-

практические рекомендации по совершенствованию учета резерва по сомнительным долгам в деятельности предприятий.

Ключевые слова: сомнительные долги, резерв по сомнительным долгам, бухгалтерский учет, финансовая отчетность, МСФО 9, ожидаемые кредитные потери.

THEORETICAL FOUNDATIONS OF ACCOUNTING FOR ALLOWANCE FOR DOUBTFUL DEBTS IN ENTERPRISES AND INTERNATIONAL EXPERIENCE (BASED ON IFRS)

Abstract. This article examines the theoretical foundations of accounting for the allowance for doubtful debts in enterprises and the specifics of its presentation in financial statements. The study reveals the economic nature of doubtful debts, the criteria for their assessment, and the rationale for establishing allowances. Particular attention is paid to the analysis of International Financial Reporting Standards, especially the Expected Credit Loss (ECL) model under IFRS 9, highlighting its advantages over traditional accounting approaches. A comparative analysis of national accounting practices and international experience is conducted, resulting in scientific and practical recommendations aimed at improving the accounting system for allowances for doubtful debts in enterprises.

Keywords: doubtful debts, allowance for doubtful accounts, accounting, financial reporting, IFRS 9, expected credit losses.

KIRISH

Hozirgi globallashuv sharoitida korxonalar moliyaviy barqarorligini ta'minlash, aktivlar sifati va likvidligini saqlab qolish masalalari buxgalteriya hisobi tizimida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, debitorlik qarzlarning o'z vaqtida undirilmasligi bilan bog'liq xavflar korxonalar moliyaviy natijalariga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois, gumodor qarzlari bo'yicha zaxira hisobini to'g'ri tashkil etish va yuritish moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini ta'minlashda muhim vosita hisoblanadi [1].

Gumodor qarzlari — bu kelgusida to'liq yoki qisman undirilmaslik ehtimoli mavjud bo'lgan debitorlik qarzlari. Ularning yuzaga kelishi bozor munosabatlarining chuqurlashuvi, kontragentlarning moliyaviy holati yomonlashuvi, to'lov intizomining sustligi hamda iqtisodiy beqarorlik omillari bilan chambarchas bog'liqdir. Mazkur holatlarda gumodor qarzlari bo'yicha zaxira shakllantirilmasligi

korxonaning moliyaviy ahvolini sun'iy ravishda yaxshilab ko'rsatishiga olib keladi va moliyaviy hisobot foydalanuvchilarini chalg'itishi mumkin [2].

Xalqaro amaliyotda gumodor qarzlarni bo'yicha zaxira hisobini yuritish Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan IFRS 9 "Moliyaviy instrumentlar" standarti asosida amalga oshiriladi. Ushbu standartda "kutilayotgan kredit yo'qotishlari" (Expected Credit Loss — ECL) modeli joriy etilib, unda qarzlarning kelgusidagi yo'qotish ehtimoli oldindan baholanadi. Mazkur yondashuv an'anaviy "real yo'qotish" modelidan farqli ravishda riskka yo'naltirilgan bo'lib, korxonalar moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi [3].

Milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida esa gumodor qarzlarni bo'yicha zaxira shakllantirish ko'pincha soddalashtirilgan yoki soliq maqsadlariga yo'naltirilgan yondashuv asosida amalga oshiriladi. Natijada, xalqaro standartlar talablari bilan milliy hisob tizimi o'rtasida tafovutlar yuzaga kelmoqda. Bu esa moliyaviy hisobotlarning xalqaro miqyosda taqqoslanish imkoniyatini cheklaydi va xorijiy investorlar uchun axborot shaffoqligini pasaytiradi [4].

Shu munosabat bilan, korxonalarda gumodor qarzlarni bo'yicha zaxira hisobini tashkil etishning nazariy asoslarini chuqur o'rganish, xalqaro tajribani tahlil qilish va IFRS talablariga mos ravishda takomillashtirish dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning asosiy maqsadi ham aynan ushbu masalalarni yoritish va ilmiy asoslangan xulosalar ishlab chiqishdan iboratdir [5].

ADABIYOTLAR TAHLILI

Gumodor qarzlarni bo'yicha zaxira hisobi masalalari buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobot sohasida ko'plab xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda gumodor qarzlarning iqtisodiy mohiyati, ularni baholash mezonlari hamda moliyaviy natijalarga ta'siri turli nazariy yondashuvlar asosida yoritilgan.

Amerikalik olimlar D. Kieso, J. Weygandt va T. Warfieldlarning "Intermediate Accounting" asarida gumodor qarzlarni korxonada aktivlari sifatining pasayishiga olib keluvchi asosiy risk omillaridan biri sifatida talqin qilinadi. Mualliflarning ta'kidlashicha, gumodor qarzlarni bo'yicha zaxira shakllantirish hisobning ehtiyotkorlik (prudence) tamoyilini ta'minlab, moliyaviy hisobotlarning ishonchliligini oshiradi [6]. Ushbu yondashuvga ko'ra, zaxira hisobini yuritmaslik korxonada foydasining asossiz oshib ko'rsatilishiga sabab bo'ladi.

P. Atrill va E. McLaney o'zlarining "Accounting and Finance for Non-Specialists" nomli asarlarida gumodor qarzlarni bo'yicha zaxirani shakllantirishni debitorlik qarzlarni real qiymatda aks ettirishning muhim vositasi sifatida

baholaydilar. Mualliflarning fikricha, zaxira hisobining mavjudligi moliyaviy hisobot foydalanuvchilariga korxonaning haqiqiy moliyaviy holatini baholash imkonini beradi hamda qarzlarni boshqarish samaradorligini oshiradi [7].

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan C. Nobes va R. Parkerlarning qarashlariga ko'ra, gumodor qarzlari bo'yicha zaxira hisobini yuritishda xalqaro va milliy yondashuvlar o'rtasida sezilarli farqlar mavjud. Ularning "Comparative International Accounting" asarida ta'kidlanishicha, IFRS tizimi riskka asoslangan yondashuvni ilgari surib, moliyaviy instrumentlar bo'yicha yo'qotishlarni oldindan tan olishni nazarda tutadi [8]. Bu esa korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

IASB tomonidan ishlab chiqilgan IFRS 9 "Financial Instruments" standartida gumodor qarzlari bo'yicha zaxira shakllantirish masalasi "kutlayotgan kredit yo'qotishlari" modeli asosida yoritilgan. Standartda aytilishicha, debitorlik qarzlari bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar faqat real zarar yuzaga kelganda emas, balki kelgusida yuz berishi mumkin bo'lgan risklar asosida baholanishi lozim [9]. Ushbu yondashuv an'anaviy "incurred loss" modeliga nisbatan ancha ilg'or hisoblanadi.

Moliyaviy tahlil va baholash masalalarini tadqiq etgan K. Palepu va P. Healy o'zlarining ilmiy ishlarida gumodor qarzlari bo'yicha zaxira miqdori korxonaning foyda ko'rsatkichlari va rentabellik darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar. Mualliflarning fikricha, zaxira hisobining noto'g'ri yuritilishi menejment tomonidan moliyaviy natijalarni manipulyatsiya qilish xavfini oshiradi [10].

Shuningdek, MDH mamlakatlari olimlarining tadqiqotlarida gumodor qarzlari bo'yicha zaxira hisobi ko'pincha soliq hisobiga yo'naltirilganligi qayd etiladi. Ularning fikricha, bunday yondashuv moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarga mosligini pasaytiradi va investitsion qarorlar qabul qilish jarayonida axborot sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi [11].

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, gumodor qarzlari bo'yicha zaxira hisobini tashkil etish masalasi nazariy va amaliy jihatdan yetarlicha yoritilgan bo'lsa-da, milliy hisob tizimini IFRS talablariga moslashtirish bo'yicha izchil ilmiy tadqiqotlar olib borish zarurati saqlanib qolmoqda.

METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda ilmiy bilishning umumiy va maxsus usullaridan foydalanildi. Xususan, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, taqqoslash hamda tizimli yondashuv metodlari orqali gumodor qarzlari bo'yicha zaxira hisobining nazariy asoslari o'rganildi. Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, ayniqsa IFRS 9 talablari asosida

xalqaro tajriba tahlil qilindi va milliy buxgalteriya hisobi amaliyoti bilan qiyoslandi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy-mantiqiy tahlil usuli yordamida mavjud yondashuvlarning afzallik va kamchiliklari aniqlab berildi. Olingan natijalar asosida ilmiy xulosalar va amaliy tavsiyalar shakllantirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Korxonalarda gumodor qarzlari bo'yicha zaxira hisobining to'g'ri tashkil etilishi moliyaviy hisobotlarda aktivlarning real qiymatini aks ettirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy adabiyotlarda qayd etilishicha, debitorlik qarzlari tarkibida gumodor qarzlari ulushining oshishi korxonaning likvidligi va moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, shu bois ularni o'z vaqtida baholash va zaxira shakllantirish zarur hisoblanadi [12].

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq, xususan IFRS 9 doirasida gumodor qarzlari bo'yicha zaxira shakllantirish " kutilayotgan kredit yo'qotishlari" (Expected Credit Loss – ECL) modeli asosida amalga oshiriladi. Ushbu modelga ko'ra, qarzlari bo'yicha yo'qotishlar faqatgina real to'lovga qodir emaslik aniqlanganda emas, balki qarzdorning moliyaviy holati yomonlashish ehtimoli mavjud bo'lgan bosqichning o'zida tan olinadi [13]. Bu esa moliyaviy risklarni oldindan hisobga olish imkonini beradi.

Amaliy tahlillar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy yondashuvlarda gumodor qarzlari bo'yicha zaxira ko'pincha qarzlarning muddati o'tgan qismiga nisbatan foizli usulda shakllantiriladi. Biroq IFRS 9 modeli qarzlarning butun hayotiy sikli davomida kredit riskining o'zgarishini inobatga oladi. Nobes va Parkerlarning tadqiqotlariga ko'ra, ushbu yondashuv moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshirib, investorlar uchun axborot ishonchliligini ta'minlaydi [14].

Quyidagi jadvalda gumodor qarzlari bo'yicha zaxira shakllantirishning an'anaviy usullari va IFRS 9 (ECL modeli) o'rtasidagi asosiy farqlar keltirilgan:

1-jadval

Gumodor qarzlari bo'yicha zaxira shakllantirish usullarining taqqoslanishi

Taqqoslash mezonlari	An'anaviy yondashuv	IFRS 9 (ECL modeli)
Zaxira tan olish vaqti	Real zarar aniqlanganda	Kutilayotgan zarar asosida
Riskni baholash	Cheklangan	Oldindan va dinamik
Debitorlik qarzlari bahosi	Qisman real	Maksimal darajada real
Moliyaviy natijalarga ta'siri	Kechiktirilgan	Erta va asoslangan

Investorlar uchun axborot sifati	Nisbatan past	Yuqori
----------------------------------	---------------	--------

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, IFRS 9 asosidagi yondashuv gumodor qarzlarni bo'yicha zaxirani shakllantirishda riskka yo'naltirilgan mexanizmni ta'minlaydi. Bu esa korxonada foydasining sun'iy ravishda oshirib ko'rsatilishining oldini oladi va moliyaviy natijalarni yanada haqqoniy aks ettirishga xizmat qiladi [15].

Palepu va Healy tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda gumodor qarzlarni bo'yicha zaxira miqdorining oshishi qisqa muddatda foyda ko'rsatkichlarini pasaytirishi mumkinligi, biroq uzoq muddatda moliyaviy barqarorlik va kreditga layoqatlilikni mustahkamlashi isbotlangan [16]. Ushbu xulosalar IFRS 9 modelining strategik ahamiyatini yanada kuchaytiradi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida gumodor qarzlarni bo'yicha zaxira hisobini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish korxonalarining moliyaviy hisobot sifatini oshiradi, risklarni boshqarish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda investitsion jozibadorlikni ta'minlaydi. Shu sababli, gumodor qarzlarni bo'yicha zaxira hisobini IFRS 9 talablari asosida takomillashtirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim natija sifatida baholanadi [17].

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, gumodor qarzlarni bo'yicha zaxira hisobini to'g'ri tashkil etish korxonalarining moliyaviy hisobotlarida aktivlar qiymatini real va haqqoniy aks ettirishning aniqlovchi omillaridan biridir. Gumodor qarzlarning o'z vaqtida aniqlanmasligi va ular bo'yicha yetarli zaxira shakllantirilmasligi moliyaviy natijalarning sun'iy ravishda oshirib ko'rsatilishiga hamda moliyaviy risklarning yashirin qolishiga olib keladi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari, xususan IFRS 9 doirasida joriy etilgan kutilayotgan kredit yo'qotishlari modeli gumodor qarzlarni bo'yicha zaxira hisobini yuritishda riskka yo'naltirilgan va ilg'or yondashuvni ta'minlaydi. Ushbu model qarzlarni bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni oldindan baholash orqali korxonalarining moliyaviy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi hamda moliyaviy hisobotlarning shaffofligini oshiradi.

Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy va qiyosiy tahlillar milliy buxgalteriya hisobi amaliyotida gumodor qarzlarni bo'yicha zaxira hisobini xalqaro standartlar talablariga moslashtirish zaruratini ko'rsatdi. Ayniqsa, zaxira hisobini shakllantirishda subyektiv yondashuvlarni kamaytirish va kredit risklarini baholashning tizimli mexanizmlarini joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Umuman olganda, gumodor qarzlar bo'yicha zaxira hisobini IFRS talablariga muvofiq tashkil etish korxonalarining investitsion jozibadorligini oshiradi, moliyaviy boshqaruv sifatini yaxshilaydi va bozor sharoitida barqaror rivojlanish uchun zarur bo'lgan axborot bazasini shakllantiradi. Tadqiqot natijalari ushbu yo'nalishda keyingi ilmiy izlanishlar olib borish uchun nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Kieso, D. E., Weygandt, J. J., Warfield, T. D. *Intermediate Accounting*. — 17th Edition. Hoboken: John Wiley & Sons, 2020.
2. Atrill, P., McLaney, E. *Accounting and Finance for Non-Specialists*. — 11th Edition. London: Pearson Education Limited, 2019.
3. Nobes, C., Parker, R. *Comparative International Accounting*. — 14th Edition. Harlow: Pearson Education Limited, 2020.
4. International Accounting Standards Board (IASB). *IFRS 9 Financial Instruments*. — London: IFRS Foundation, 2014.
5. Palepu, K. G., Healy, P. M. *Business Analysis and Valuation Using Financial Statements*. — 5th Edition. Boston: Cengage Learning, 2018.
6. Соколов, Я. В. *Теория бухгалтерского учета*. — Москва: Финансы и статистика, 2018.